International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNI JORIY ETISHNING SHART-SHAROITLARI

Axunova Layla Boxodirovna
Maktabgacha va maktab talimi vazirligi Inklyuziv talimni rivojlantirish,
Mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish va ekologik diplomatiya boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
axunoval17@bk.ru

Annotatsiya
Ushbu maqolada turli tadqiqotlar natijalari keltirilgan va inklyuziv kompetentsiyani rivojlantirish bo’yicha asosiy ma’lumotlar yoritilgan bo’lib, O’zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimi¬ni takomillashtirish hamda ularga ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifa¬tini yaxshilash masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar, maxsus pedagog, integratsiya, korreksion ta’lim.

Kirish

Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari, inklyuziv ta’limni joriy etishning shart-sharoitlari asosiy maqsadi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekistan Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash toprisida” 2019 yil 29 apreldagi PF-5712- son Farmoniga muvofiq O’zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4860-son qarorining ijrosi sifatida, Xalq ta’limi hamda Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi ta’lim muassasalarning pedagog xodimlar, psixologlar, olimlar, talabalar va jamoatchilik orasida inklyuziv ta’limni targ’ib qilishga yo’naltirilgan.

2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni joriy etish va rivojlantirish bo’yicha quyidagi masalalarni amalga oshirilishiga qaratilgan:

- inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zarur adabiyotlar, metodik qo’llanmalar, turli kasblarga o’qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlash;
- inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o’qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o’rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo’lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- -inklyuziv ta’limda o’qitish usullarini takomillashtirish hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- o’quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining hududiy joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari sonini optimallashtirish.

Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qatiy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak. (UNICEF)

Bilamizki, bizga yod ham bo’lishga ulgurgan imkoniyati cheklangan bolalar maxsus maktab yoki maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olishadi. To’g’ri imkoniyati cheklangan o’z nomi bilan biron kimni ko’magiga muhtoj bo’lgan bola. Lekin biz bunda hamma bola ham bir xil emasligini unutib qo’ymoqdamiz.

Ularning orasida ham yengil darajada bo’lib yordamga kam ehtiyojli, sog’lom bolalar kabi ta’lim olish bilim egallashga haqlari bor bolalar ham mavjud. Maxsus ta’lim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo’lsada, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sog’lom muhitda ta’lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ayrim muammolar paydo bo’ladi.

Shu bois imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarning yoshi-strategion ta’lim tizimida o’qitilishi ko’plab salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinib, inklyuziv ta’lim siyosati qo’llab-quvvatlanmoqda. Bu o’rinda L. S. Vigotskiyning fikricha: “Maxsus maktablarimiz afzallik jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari bilan ham ajralib turadi, u o’z tarbiyachisini tor doiradagi maktab jamoasi bilan chegaralab: kar, ko’r yoki aqli zaif bolaning asosiy e’tiborini o’zida mavjud bo’lgan kamchiligiga qaratib, barcha sharoitni shu nuqsoniga moslashtirib qo’yadi. Bularning barchasi bolaning haqiqiy hayotga kirib kelishiga to’sqinlik qiladi. Maxsus maktab bolani chegaralangan dunyodan chiqarish o’rniga odatda shunday ko’nikmalarni rivojlantiradiki, oqibatda uning separatizmligi kuchayib, bola o’z dunyosiga yanada chuqurroq kirib ketadi”. Shuningdek xalqaro miqyosda ta’lim islohotini demokratlashtirish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish natijasida jamiyatning dunyoqarashi o’zgarib, har xil toifadagi kishilar orasida yangicha yondashuv, o’zaro hurmat, ijobiy munosabat shakllandi. Maxsus ta’lim sohasining rivojlanishini qayta ko’rib chiqish siyosati amalga oshirila boshlandi.

Ko’plab mamlakatlar «Segregatsiya» ta’limidan voz kechib, imkoniyati cheklangan bolalarga integratsion ta’limni tadbiq qilishni lozim topdi.

Keyingi 10-15 yil davomida O’zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umum ta’lim tizimiga kiritish integratsiya va inklyuziv usulida o’qitish, tarbiyalash masalasi ham amalga oshirib kelinmoqda. Integratsiya va inklyuziv ta’lim strategiyasi ilmga jalb qilinmagan bolalarni umumta’lim muassasalariga to’laqonli maxsus yoki inklyuziv ta’lim tizimiga integratsiya qilish,

korreksion ta’lim muassasasi bolalarning turar joyidan uzoqligi sababli o’zi yashab turgan hududlaridagi ta’lim muassasalariga kiritib o’qitishdan iborat.

UNICEF inklyuziv ta’lim O’zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalasi bilan shug’ullanadi. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qatiy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega boplishlari uchun oilada yashashlari va o’z tegdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yoki imkoniyati cheklangan bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o’zlashtirishda qiynalayotgan bo’lsa, o’qish va yozishga o’rganish uchun maxsus yordamga ega bo’lishi, darslarga qatnamay qo’ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko’rsatilishini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta’limli sinfda albatta maxsus pedagog bo’lishi ham muhum sanaladi. Chunki sinf rahbarida xoxlaymizmi yo’qmi sinfdagi 30-35 ta bolaga alohida e’tibor qaratish uchun vaqt yetarli bo’lmaydi. Imkoniyati cheklangan bola baribir orqada qolishi, vazifalarni tushunmay qolishi mumkin. Bundan vaziyatlarda maxsus pedagog yordam beradi. Inklyuziv ta’lim psixolog, o’qituvchi va maxsus pedagogni hamkorligini talab qiladi.

Qisqa qilib aytganda , yetishib kelayotgan avlodga sifatli ta’lim va tarbiya berishda ta’lim jarayonining asosiy boshqaruvchi vakillari bo’lgan pedadgog kadrlar har qanday jismoniy holatdagi bolani tushunishi, unga dunyo eshiklari ochishda ularga yo’l ko’rsatuvchi mayoq vazifasini sabr va alohida mehr bilan vazifalarini bajarishlari talab qilinadi. Bu esa o’z o’rnida pedagog kadrlarni inklyuziv kompetensiyalarini yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar va o’smirlarga nisbatan g’amxoprlik, ularning huquqlarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, ta’lim - tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sog’lom jamiyatga tenglashtirish ishlari bugungi kunning o’ta dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”, 2020. [Online]. Available: https://lex.uz/docs/-5044711

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PQ-4860-son qaror, 13-oktyabr 2020-yil.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”, 638-son qaror, 12-oktyabr 2021-yil.

[4] United Nations, Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD), 13-Dec-2006.

[5] L. S. Vygotsky, Defekt i sverxkompensatsiya, in “Problema defektologii,” Moscow, Russia: 1996, p. 42.

[6] S. O. Safarova and I. D. Yuldashova, “Improvement of professional inclusive competences of educators in implementing inclusive education,” Science and Innovation International Scientific Journal.